



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 28-fevral

99-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 27-fevralda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tomorqa yer egalari va dehqon xo‘jaliklari faoliyatida zamonaviy tashkiliy tizimni joriy qilish va moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 14-fevraldagi PF–22-son Farmoni ijrosi haqida”gi 89-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

Tomorqa yerlari va dehqon xo‘jaliklari yer maydonlaridan samarali foydalanish, sohaga zamonaviy boshqaruv tizimini joriy etish, mahallalarning ixtisoslashuvidan kelib chiqqan holda yuqori daromadli va eksportbop mahsulotlar yetishtirishni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tomorqa yer egalari va dehqon xo‘jaliklari faoliyatida zamonaviy tashkiliy tizimni joriy qilish va moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 14-fevraldagi PF–22-son Farmoni hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 27-fevraldagi 89-6-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 27-fevraldagi 89-6-0-Q/25-sonli qarori ijrosi rahbarlik va ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi PF–22-son Farmoni bilan:

Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining:

O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashini O‘zbekiston fermerlari kengashi etib qayta nomlashi;

Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga dehqon xo‘jaliklari va aholi tomorqalarini rivojlantirish bilan bog‘liq vazifa va funksiyalarni yuklash to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilganligi;

aholi tomorqalari va uzoq muddatli ijaraga berilgan yer maydonlarida yuqori daromadli mahsulotlar yetishtirish bo‘yicha ixtisoslashuvni chuqurlashtirish orqali hududlarning yangi “o‘sish nuqtalari”ni yaratish hamda tomorqani aholining barqaror daromad manbaiga aylantirish maqsadida Tomorqa yer egalari va dehqon xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish bo‘yicha kengash (keyingi o‘rinlarda — Kengash) tuzilishi va uning tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi huzuridagi Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi negizida O‘zbekiston fermerlari kengashi huzurida Fermer xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hamda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzurida yuridik shaxs tashkil etmasdan Dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda — Jamg‘arma) tashkil etilganligi;

belgilanishicha:

a) O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi huzuridagi Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasining:

qoldiq mablag‘laridan 300 milliard so‘m qismi, tijorat banklariga maqsadli dasturlarni moliyalashtirish uchun joylashtirilgan resurslardan qaytadigan resurslar hisobidan 1 trillion so‘m miqdoridagi mablag‘ va ularga hisoblanadigan foiz to‘lovlari, shuningdek, Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi oldidagi qarzdorliklarni qoplash majburiyatlari Jamg‘armaga o‘tkazilishi;

boshqa aktiv va majburiyatlari to'liq hajmda Fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga o'tkazilishi;

b) 2025-yil Davlat budjeti parametrlarida Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'larini shakllantirish uchun ko'zda tutilgan mablag'larning 50 milliard so'm qismi Jamg'armaga o'tkazilishi;

shunday tartib o'rnatilganki, unga ko'ra aholi tomorqasi va dehqon xo'jaliklariga ijaraga berilgan yer maydonlaridan samarali foydalanish holati bo'yicha hokim yordamchisi tomonidan hududning iqlim sharoitini inobatga olgan holda har chorakda o'tkaziladigan monitoring natijasida ekin to'liq ekilmagan yoki qarovsiz qoldirganlik holati aniqlanganda tajriba tariqasida (fors-major holatlari bundan mustasno):

a) tomorqa yer egalari va dehqon xo'jaliklariga davlat dasturlari doirasidagi imtiyozli kreditlar berilmaydi;

b) Ijtimoiy himoya yagona reyestriga kiritilgan fuqarolar uchun nazarda tutilgan imtiyozlar to'xtatiladi;

d) "Online mahalla" elektron platformasi ma'lumotlari asosida ekin ekilmaganligi aniqlangan yil uchun yer solig'i stavkasi uch karra miqdorida hisoblanadi. Bunda:

berilayotgan imtiyozlarni vaqtinchalik to'xtatish, qayta tiklash va oshirilgan soliq stavkalarini qo'llash "mahalla yettiligi" xulosasiga asosan amalga oshiriladi va tegishli ma'lumotlar "Online mahalla" elektron platformasiga kiritib boriladi;

tomorqa va ijaraga berilgan yer maydonlaridan samarali foydalanish yo'lga qo'yilgan, ya'ni ekin ekiladigan maydonlariga ekin ekilgan taqdirda, "mahalla yettiligi" kafilligi bilan barcha imtiyozlar va amaldagi soliq stavkalari tiklab berilishi;

belgilanishicha:

aholi tomorqalaridan yuqori daromad olishni rag'batlantirish maqsadida 2026-yildan boshlab tajriba tariqasida Namangan viloyatida dehqon xo'jaliklari va tomorqa yerlarida yetishtirilgan mahsulotlardan olingan daromad miqdori 1 sotix uchun bazaviy hisoblash miqdorining 25 baravaridan yuqori bo'lganda fuqarolar va (yoki) dehqon xo'jaliklarining ekin bilan band bo'lgan yer uchastkalari uchun to'langan yer solig'ining 90 foizi tegishli yil yakuni bilan qaytarib berilishi;

mazkur tartib yer uchastkalaridan hujjatlarsiz yoxud yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilganidan kattaroq hajmda foydalanilgan yer uchastkalariga nisbatan tatbiq etilmasligi;

shunday tartib o'rnatilganki, unga muvofiq 2025-yil 1-martdan boshlab eksport qilish maqsadida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini jismoniy shaxslardan xarid qilgan korxonalar tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlar elektron shaklda soliq organlari ma'lumotlar bazasida aks ettirilishi soliq solish maqsadlarida kirim hujjatlariga tenglashtirilganligi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga 2-ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlari 3-ilovaga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Iqtisodiyot va moliya bo'limi (Z.Jo'rabayev), tijorat banklari, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi (Z.Axmadjonov), O'zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo'limi (O.Qodirov), Qishloq xo'jaligi bo'limi (A.Xakimov), manfaatdor idoralar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi PF-22-son Farmoni talablari asosida ish tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari -iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i A.Abdusalomov va tuman hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari -qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'i I.Ergashev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov